II-SHO‘BA
TALABALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ETNOPEDAGOGIK RESURSLARNING O‘RNI.

B.X.Baydjanov
Farg‘ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TALABALARNING INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIK DARAJASINI ANIQLASHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA USULLARI

Anotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning informatsion-analitik kompetentligini shakllantirish va uni aniqlashda qo‘llaniladigan pedagogik diagnostika usullari tahlil qilingan. Informatsion-analitik kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda o‘quv jarayonida bu kompetentligini baholash mezonlari yoritilgan. Shuningdek, diagnostika jarayonida test, so‘rovnoma, kuzatuv, portfel tahlili kabi usullarni qo‘llashning afzalliklari va ularning samaradorligini aniqlashga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: informatsion-analitik kompetentlik, pedagogik diagnostika, baholash mezonlari, tahlil, axborot madaniyati, o‘quv faoliyati, diagnostika usullari.

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические диагностические методы, применяемые для формирования информационно-аналитической компетентности студентов и её определения. Рассмотрено содержание понятия информационно-аналитической компетентности, её структурные компоненты, а также критерии оценки этой компетентности в образовательном процессе. Кроме того, приведены научно-практические рекомендации по применению таких методов диагностики, как тесты, анкеты, наблюдение, анализ портфолио, с указанием их преимуществ и эффективности.

Ключевые слова: информационно-аналитическая компетентность, педагогическая диагностика, критерии оценки, анализ, информационная культура, учебная деятельность, методы диагностики.

Abstract. This article analyzes pedagogical diagnostic methods used to develop and assess students’ information-analytical competence. The content of the concept of information-analytical competence, its structural components, and the criteria for evaluating this competence in the educational process are highlighted. Additionally, scientific and practical recommendations are provided for applying diagnostic methods such as tests, questionnaires, observation, and portfolio analysis, including their advantages and effectiveness.

Keywords: information-analytical competence, pedagogical diagnostics, assessment criteria, analysis, information culture, educational activity, diagnostic methods.

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – raqamli axborot muhitida mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oluvchi va samarali qaror qabul qila biluvchi shaxsni shakllantirishdan iborat. Globallashuv, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi va bilim iqtisodiyoti sharoitida har bir talabaning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik masalaga aylanmoqda. Chunki bu kompetentlik talabalarning o‘quv, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash va undan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda xalqaro ta’lim tizimida OECD, UNESCO, va European Higher Education Area (EHEA) doirasida kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Xususan, talabalarning axborot bilan ishlash madaniyati, analitik tafakkuri hamda raqamli savodxonligini baholashga qaratilgan ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmoqda. Shu bois, informatsion-analitik kompetentligini aniqlash va rivojlantirishning samarali pedagogik diagnostika usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostika – bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, kompetensiyalari va shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga qaratilgan tizimli jarayondir. Talabalarning informatsion-analitik kompetentligini diagnostika qilish jarayoni nafaqat ularning bilim va ko‘nikmalarini o‘lchashni, balki axborot bilan ishlashdagi fikrlash strategiyalarini, muammolarni tahlil qilish qobiliyatini ham aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy kompetensiya asosidagi ta’lim modelini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi – talabalarning informatsion-analitik kompetentligini aniqlashda qo‘llaniladigan pedagogik diagnostika usullarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va ta’lim jarayoniga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi, axborot texnologiyalariga asoslangan o‘quv muhit, shuningdek, diagnostikaning zamonaviy metodik vositalari ilmiy asosda o‘rganiladi.

So‘nggi yillarda informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish masalasi xalqaro ta’lim tadqiqotlarida alohida e’tiborni qozonmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning

analitik fikrlash, axborotni qayta ishlash va tahlil asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish global ta’lim sifatining muhim mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Informatsion-analitik kompetentlik tushunchasi dastlab G.P.Shchedrovitskiy, E.S.Polat, J.Raven, hamda A.M.Novikovlarning ishlarida “axborot bilan ishlash jarayonida fikrlash faoliyatining tarkibiy qismi” sifatida talqin etilgan. Ularning fikricha, bu kompetentlik shaxsning o‘quv, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida mustaqil axborot tahlilini amalga oshirish, mavjud ma’lumotlar asosida asosli xulosalar chiqara olish qobiliyatini ifodalaydi.

Zamonaviy xorijiy manbalarda (Andersonm, Krathwohl; Bloom; Beetham, Sharpe, 2019) informatsion-analitik kompetentlik **“**raqamli savodxonlik”, “kritik tafakkur” va “axborot madaniyati” bilan chambarchas bog‘liq tushuncha sifatida o‘rganilgan. Ayniqsa, European Digital Competence Framework for Citizens (DigComp, 2022) modelida axborotni izlash, baholash, tahlil qilish va uni maqsadga muvofiq qo‘llash kompetensiyalari talabalarning raqamli kompetentlik darajasini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Mahalliy olimlar orasida (A.Abdurahmonov, M.Ochilov, N.Toshpulatova, Z.Jo‘rayev, 2020-2024) ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etish, raqamli ta’lim muhiti orqali kompetensiyalarni shakllantirish, hamda diagnostika usullarini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlarida talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatini baholashda pedagogik diagnostikaning muhimligi, ayniqsa, kuzatuv, test, portfel tahlili, va refleksiv suhbat kabi metodlarning kompleks qo‘llanishi samarali natijalar berishi ta’kidlanadi. Pedagogik diagnostika nazariyasi masalalariga bag‘ishlangan asarlarda (Bloom, Wiliam, Nitko, Brookhart, 2014) diagnostika o‘quv jarayonining uzviy qismi sifatida ko‘riladi. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning bilim darajasi va kompetensiyalarini o‘lchash uchun formatif va summativ baholash usullari o‘rtasidagi farq, shuningdek, individual yondashuvning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish va baholash jarayonida kompleks diagnostik yondashuvni shakllantirish zarur. Xorijiy tajribada bu jarayon raqamli diagnostika vositalari, elektron portfel tizimlari va onlayn tahlil platformalari yordamida amalga oshirilsa, mahalliy amaliyotda bu yo‘nalish hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli, talabalarning informatsion-analitik kompetentligini aniqlashda samarali pedagogik diagnostika usullarini ishlab chiqish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Talabalarning informatsion-analitik kompetentligini aniqlashda pedagogik diagnostika usullarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi va diagnostik baholash nazariyasi asosida olib borildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida oliy ta’lim muassasalarining 2,4-bosqich bakalavr talabalari tanlandi, predmeti esa ularning informatsion-analitik kompetentligini aniqlashda qo‘llaniladigan pedagogik diagnostika usullari va ularning samaradorligi hisoblandi. Tadqiqot maqsadi talabalarning kompetentlik darajasini baholash uchun samarali diagnostika usullarini aniqlash, vazifalari esa kompetentlik mazmunini tahlil qilish, diagnostika mezonlarini belgilash, metodlarni sinab ko‘rish va natijalar asosida tavsiyalar

ishlab chiqishdan iborat edi.

Tadqiqotda aralash metodologiya (mixed-method) qo‘llanilib, nazariy metodlar tahlil, sintez, taqqoslash, konseptual modellashtirish va empirik metodlar test, so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, portfel tahlili, refleksiv suhbat birlashtirildi. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik metodlar, xususan foizli tahlil, korrelyatsiya tahlili va diagrammalardan foydalanildi. Tadqiqot bazasini 110 nafar talaba tashkil etdi, ular ijtimoiy-gumanitar va texnik yo‘nalish vakillari bo‘ldi.

Talabalarning informatsion-analitik kompetentligini baholash uchun maxsus diagnostik paket ishlab chiqildi. U axborotni izlash va tanlash, axborotni tahlil qilish, axborotni baholash va qaror qabul qilish, shuningdek refleksiv baholash bloklarini o‘z ichiga oladi. Diagnostika vositalari yordamida talabalarning axborot bilan ishlash, tahlil qilish, baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari aniqlanadi. Olingan ma’lumotlar SPSS Statistics va Microsoft Excel dasturlari yordamida qayta ishlanib, diagnostika vositalarining ichki ishonchliligi Cronbach’s Alpha koeffitsienti bilan aniqlandi ($\alpha = 0.82$), bu metodikaning yuqori darajada konsistent ekanligini ko‘rsatdi. Shu tariqa, ishlab chiqilgan diagnostika paketining ta’lim jarayonida talabalarning informatsion-analitik kompetentligini baholash va rivojlantirish uchun samarali vosita ekanligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning informatsion-analitik kompetentligida diagnostika usullarining samaradorligi turlicha bo‘lib, har bir metod muayyan qobiliyatni aniqlashda o‘z roliga ega. Test topshiriqlari axborotni izlash va tanlash ko‘nikmasini, vaziyatli topshiriqlar axborotni tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatini aniqlashga yordam berdi. Shaxsiy portfel tahlili va refleksiv suhbat esa talabaning refleksiv fikrlash va qaror qabul qilish malakalarini baholashda samarali bo‘ldi.

Olingan natijalar quyidagi tarzda taqdim etiladi:

1-jadval

№	**Diagnostika usuli**	**Kompetentlik ajasi (%)**	**Izoh**
1.	Test topshiriqlari	60	Axborotni izlash va tanlash ikmasi
2.	Vaziyatli topshiriqlar	55	Axborotni tahlil qilish va xulosalar arish
3.	Portfel tahlili	50	Refleksiv fikrlash va o‘zini baholash
4.	Refleksiv suhbat	52	Qaror qabul qilish va analitik ash

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning axborot bilan ishlash va analitik ko‘nikmalari test va vaziyatli topshiriqlar orqali, shaxsiy rivojlanish va refleksiv fikrlash esa portfel va suhbat metodlari orqali aniqlanadi. Shu bilan birga, metodlarning kombinatsiyasi talabalarning kompetentlik darajasini to‘liq va aniq baholashga imkon beradi.

Talabalarning informatsion-analitik kompetentligini aniqlashda turli pedagogik diagnostika usullarining o‘ziga xos afzalliklari mavjud. Test topshiriqlari va vaziyatli topshiriqlar axborotni tanlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini baholashda aniq natija beradi, ammo bu metodlar refleksiv fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini yetarli darajada o‘lchay olmaydi. Shu bois, portfel tahlili va refleksiv suhbat kabi shaxsiy baholash usullari talabaning o‘zini baholash, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini yanada to‘liq aks ettiradi. Mahalliy va xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Anderson va Krathwohl (2001) ham amaliy va refleksiv metodlarning talabalarning yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini aniqlashda samarali ekanligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar (Abdurahmonov, 2022; Toshpulatova, 2023) test va portfel metodlarining kombinatsiyasi talabalarning kompetentligini baholashda muhimligini tasdiqlaydi.

Pedagogik diagnostika vositalarini kompleks qo‘llash test, vaziyatli topshiriq, portfel va refleksiv suhbat talabalarning kompetentlik darajasini aniq va to‘liq baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, diagnostika jarayonini individual talaba ehtiyojlariga moslashtirish va ta’lim jarayonini yaxshilashda ham ushbu kombinatsiya samarali hisoblanadi.

Informatsion-analitik kompetentligini baholashda pedagogik diagnostika usullarini kompleks qo‘llash eng samarali yondashuv hisoblanadi. Test va vaziyatli topshiriqlar talabalarning axborotni izlash, tanlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini aniqlashda aniq natija beradi, portfel tahlili va refleksiv suhbat esa ularning refleksiv fikrlash, qaror qabul qilish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini to‘liq aks ettiradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, diagnostika usullarini kombinatsiyalash talabalarning kompetentlik darajasini yanada aniqroq aniqlashga imkon beradi va ta’lim jarayonini individual talaba ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik diagnostika vositalarini doimiy ravishda takomillashtirish va raqamli ta’lim muhitida qo‘llash talabalarning axborot-analitik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. L.W.Anderson, D.R.Krathwoahl, A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. New York: Longman.

2. H.Beetham, R.Sharpe, Rethinking pedagogy for a digital age: Principles and practices of design. London: Routledge, –2019.

3. J.Biggs, C.Tang Teaching for quality learning at university: What the student does. 4th edition. Maidenhead: McGraw-Hill Education, –2011.

4. P.Black, D.Wiliam Assessment and classroom learning. *Assessment in* Education: Principles, Policy & Practice, 5(1), 7-74.

5. S.Abdurahmonov Talabalarning analitik fikrlash kompetentligini rivojlantirish usullari. Ta’lim va Innovatsiyalar Jurnali, 3(1), 45-52.

6. N.Toshpulatova, Pedagogik diagnostika vositalari yordamida talabalarning kompetentligini baholash. Oliy ta’lim muammolari, 2(4), 12-19.

7. M.Shoniyazova Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarni baholashning innovatsion metodlari. Ta’lim texnologiyalari jurnali, 5(2), 33-41.

8. J.Hattie Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. London: Routledge.

9. D.Ergasheva Talabalarning kritikal fikrlash va analitik kompetentligini shakllantirish. Ilmiy izlanishlar jurnali, 6(3), 77-84.

10. T.Sadikov Oliy ta’limda pedagogik diagnostika va baholashning zamonaviy usullari. Pedagogika va Psixologiya, 4(2), 25–32.

11. Mc.Millan, Classroom assessment: Principles and practice for effective standards-based instruction. 6th edition. Boston: Pearson.